



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Кариш, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каришбоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



UDK: 338.43:330.322

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.27>

AGROBIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI

*Seyfullayeva Ayzada Tolibekovna,
Abishov Muxammed Sarsenbaevich*

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СУБЪЕКТОВ АГРОБИЗНЕСА

*Сейфуллаева Айзада Толибековна,
Абишов Мухаммад Сарсенбаевич*

ANALYSIS OF ECONOMIC EFFICIENCY INDICATORS OF AGRIBUSINESS ENTITIES

*Seyfullayeva Ayzada Tolibekovna,
Abishov Mukhammed Sarsenbaevich*

Received: January 12, 2026 Revised: January 16, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida agrobiznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda investitsiyalarning o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda 2016–2024 yillar davomida qishloq xo'jaligiga jalb qilingan investitsiyalar va yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti o'rtasidagi bog'liqlik STATA dasturi yordamida ekonometrik usullar asosida baholangan. Trend, korrelyatsiya va regressiya modellar orqali investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmi, bandlik va eksport salohiyatiga ta'siri statistik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, Niderlandiya, Xitoy va Qozog'iston tajribalari tahlil qilinib, Qoraqalpog'iston sharoitida agrobiznesni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududda investitsion faollikni oshirish, agroklastlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: agrobiznes, investitsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, regressiya modeli, STATA tahlil, agroklastlar, Qoraqalpog'iston.

Аннотация. В статье научно проанализирована роль инвестиций в повышении экономической эффективности субъектов агробизнеса в Республике Каракалпакстан. На основе данных за 2016–2024 годы с использованием программы STATA проведена эконометрическая оценка взаимосвязи между объемом инвестиций в сельское хозяйство и валовой сельскохозяйственной продукцией. С помощью трендовых, корреляционных и регрессионных моделей статистически обосновано влияние инвестиций на объем производства, занятость и экспортный потенциал. Также проанализирован зарубежный опыт Нидерландов, Китая и Казахстана и разработаны научно-практические рекомендации по развитию агробизнеса в регионе. Результаты исследования показывают необходимость активизации инвестиционной деятельности, развития агрокластеров и механизмов государственно-частного партнерства.

Ключевые слова: агробизнес, инвестиции, экономическая эффективность, регрессионная модель, анализ STATA, агрокластер, Каракалпакстан.

Abstract. This article analyzes the role of investments in increasing the economic efficiency of agribusiness entities in the Republic of Karakalpakstan. Based on data for 2016–2024, an econometric assessment of the relationship between agricultural investments and gross agricultural output was conducted using the STATA software. Trend, correlation, and regression models statistically substantiate the impact of investments on production volume, employment, and export potential. In addition, the experiences of the Netherlands, China, and Kazakhstan are analyzed, and scientific and practical recommendations for the development of agribusiness in the region are proposed. The results show the necessity of increasing investment activity, developing agro-clusters, and strengthening public-private partnership mechanisms.

Keywords: agribusiness, investments, economic efficiency, regression model, STATA analysis, agro-cluster, Karakalpakstan.

■ KIRISH

Agrobiznes — bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishdan boshlab ularni qayta ishlash, saqlash, tashish va iste'molchilarga etkazib berishgacha bo'lgan

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

barcha bosqichlarda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining o'zaro bog'langan kompleks tizimidir. Mazkur tizim ishlab chiqarish jarayoni, logistika, xizmat ko'rsatish va bozor infratuzilmasini birlashtirgan holda



qishloq xo'jaligi qiymat zanjirining to'liq funksional ishlashini ta'minlaydi. Bu tizim bir-biriga bog'liq bo'lgan tarmoqlar majmuasi bo'lib, ularning har biri umumiy ishlab chiqarish jarayonida o'z funksiyasini bajaradi. Agrobiznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash – ularning iqtisodiyotdagi real o'rnini, raqobatbardoshlik darajasini va resurslardan foydalana olish imkoniyatlarini aniqlashda muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik ko'pincha ishlab chiqarish natijalari bilan qo'llanilgan resurslar o'rtasidagi nisbat orqali tavsiflanadi [1]. Xususan, qishloq xo'jaligi sohasida bu ko'rsatkichlar mahsulot hajmi, sof foyda, mehnat unumdorligi, fondlarning qaytimi va ishlab chiqarish tannarxi asosida aniqlanadi [2]. Samaradorlik – bu nafaqat iqtisodiy foyda, balki barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlovchi mezon hamdir.

O'zbekiston sharoitida agrobiznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligi nafaqat mikroiqtisodiy, balki makroiqtisodiy darajada ham ahamiyatlidir. Ular mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim qismini shakllantiradi, oziq-ovqat xavfsizligi va bandlik darajasini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-oktabrdagi PF-6096-son Farmonida ta'kidlanganidek, agrar sohani modernizatsiya qilish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda agrosanoat klasterlari faoliyatini takomillashtirish qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Mazkur strategik vazifalar qishloq xo'jaligi tarmog'ida raqobatbardosh ishlab chiqarishni shakllantirish, qiymat zanjiri samaradorligini ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, agrobiznes subyektlarining samaradorligi ularning bozor infratuzilmasiga integratsiyalashuv darajasiga, ishlab chiqarishdagi diversifikatsiyaga va moliyalashtirish manbalariga ham bevosita bog'liq. BMT FAO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda agrobiznes samaradorligini oshirish orqali qishloq hududlarida kambag'allik darajasi 15–20 foizgacha kamaytirilgan [3].

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrobiznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda turli ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi. Ular orasida eng muhimlari — yalpi va sof foyda, rentabellik darajalari, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar, asosiy fondlar va mehnat resurslaridan foydalanish darajasidir. Bular orqali subyektning iqtisodiy faoliyati nafaqat rentabelligi, balki barqarorligi, o'sish salohiyati va samarador boshqaruv tizimi mavjudligi ham aniqlanadi.

Iqtisodiy samaradorlik baholashda, resurslar (yer, mehnat, kapital) va ularning samarali taqsimoti markaziy o'rinni egallaydi. Bu borada mashhur iqtisodchi D. Ricardo ta'kidlaganidek, “yer resurslari cheklangan bo'lib, ulardan oqilona foydalanish maksimal daromad manbayidir” (Ricardo, 1817). Shuningdek, neoklassik nazariyada ishlab chiqarish omillari va ularning o'zaro bog'liqligi, ularning marjinal samaradorligi orqali aniqlanadi (Solow, 1956).

Agrobiznesda iqtisodiy samaradorlik — bu resurslarning optimal muvofiqligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdan olinadigan maksimal natijani bildiradi. Bu erda muhim jihat shundaki, faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga emas, balki ijtimoiy va ekologik natijalarga ham e'tibor beriladi. Masalan, X. Chenery va M. Bruno o'z tadqiqotlarida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari va ularning tarkibiy dinamikasini tahlil qilib, iqtisodiy samaradorlikni ishlab chiqarish strukturasi bilan bog'lagan (Chenery & Bruno, 1962).

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida ham so'nggi yillarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, fermer va dehqon xo'jaliklariga engilliklar, subsidiyalar va resurslardan erkin foydalanish huquqlari berilishi bu subyektlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida samaradorlikni oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan “2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi”da [4] iqtisodiy samaradorlikni ko'tarish, resurslardan oqilona foydalanish va bozor tamoyillariga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish strategik vazifa sifatida belgilanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, agrobiznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligi ularning ichki resurslardan oqilona foydalanishi, tashqi iqtisodiy muhitga moslasha olishi va davlat siyosatidan samarali foydalana olish qobiliyatiga bog'liqdir. Shu sababli ularni muntazam ravishda tahlil qilish, strategik rejalashtirishda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida qaraladi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Agrobiznes tizimining rivojlanish dinamikasini baholashda iqtisodiy-statistik yondashuvlar qo'llanilishi alohida metodologik ahamiyatga ega. Chunki bunday usullar nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini, balki investitsiya oqimlarining qaytimi, resurslardan foydalanishning intensivligi hamda tarmoqning ichki tarkibida yuz berayotgan strukturaviy o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, trend, regressiya va korrelatsion tahlil kabi zamonaviy statistik metodlar agrobiznes subyektlarining o'sish sur'atlari, barqarorlik darajasi va o'zaro bog'liqlik koeffitsientlarini aniqlash orqali iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini aniqroq yoritishga yordam beradi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2024 yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasining yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 13 850,8 mlrd so'mni tashkil etgan YaHM hajmi 2024-yilning 9 oylik yakuni bo'yicha 21 562,3 mlrd so'mga etgan bo'lib, bu davr mobaynida iqtisodiy faollikning sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi. YaHMning bunday dinamikasi hudud iqtisodiyotining investitsion jozibadorligi ortib borayotgani, ishlab chiqarish infratuzilmasining bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinayotgani va agrobiznes subyektlari faoliyatining kengayib borayotgani bilan izohlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi va o'sish sur'atlari, 2020–2024 [5]

Yil	YaHM hajmi (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)
2020	25523.4	101.6
2021	29738.2	106.1
2022	35541.6	103.8
2023	39430.3	103.4
2024	30858.7	106.5

Ushbu yillar oralig'ida YaHMning o'rtacha yillik real o'sish sur'ati 5,5 foizdan yuqori bo'lgani Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy salohiyati izchil mustahkamlanayotganini, hududning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xizmatlar sektorining kengayib borayotganini tasdiqlaydi. Shuningdek, agrar sohada klasterlashuv jarayonining chuqurlashuvi, suv xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining faollashuvi YaHMning barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omillar sirasiga kiradi.

Mazkur natijalar Qoraqalpog'iston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasi yuqori bo'lganini, xususan, agrobiznesni rivojlantirish, logistik infratuzilmani yaxshilash va hududiy iqtisodiyotga yangi investitsiyalarni jalb etish bo'yicha tanlangan strategiya to'g'ri yo'nalishda ekanini ko'rsatadi.

Trend modelining yuqori determinatsiya darajasi hudud iqtisodiyotida agrobiznes sektorining o'sishi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion qo'llab-quvvatlash, klasterlashuv jarayonlarining faollashuvi hamda xususiy kapitalning kirib kelishi bilan uyg'un ravishda ro'y berayotganini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, davlat investitsiyalari va xususiy sektor faolligining o'zaro mutanosib ta'siri hududiy yalpi mahsulotning barqaror o'sishiga sezilarli hissa qo'shayotgan asosiy drayverlardan biridir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, agrobiznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda mahalliy iqtisodiy omillar bilan bir qatorda tashqi investitsiya va innovatsion yondashuvlar ham asosiy rol o'ynagan.

Masalan, Niderlandiya va Turkiyada agrobiznes sohasida hayvonlar parvarishi, sog'lom ozuqa bilan ta'minlash va ilm-fan yutuqlariga asoslangan genetik seleksiya orqali yuqori mahsulдорlikka erishilgan. O'zbekistonda esa bunday ilg'or texnologiyalar va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish zanjirlariga bosqichma-bosqich o'tish tajribasi hozircha cheklangan.

Buning uchun quyidagilar zarur:

- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni kredit va subsidiyalar bilan qo'llab-quvvatlash;
- Agrobiznesda ilmiy-tadqiqot markazlarini kengaytirish;
- Oziq-ovqat xavfsizligi tamoyillarini huquqiy mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi

O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da agrar sohani modernizatsiya qilishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida agrobiznes tizimini chuqur transformatsiya qilish hamda unga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar oqimini kengaytirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Ushbu yondashuv mamlakatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirish, bozor mexanizmlarini kuchaytirish va innovatsion biznes modellarini joriy etish bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur talablar agrobiznesning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish uchun, eng avvalo, investitsiyaviy muhitning holatini chuqur o'rganish va uning barqarorligini baholashni dolzarb masalalardan biriga aylantiradi [6].

Qoraqalpog'iston Respublikasida agrar soha hududning tabiiy-iqlim sharoiti, er va suv resurslari, demografik omillar hamda iqtisodiy infratuzilma bilan chambarchas bog'liq. Mintaqada agrar soha bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar ijobiy natijalar berayotgan bo'lsa-da, investitsion muhitda barqarorlik etarli darajada emas. Jumladan, so'nggi yillarda Qoraqalpog'istonga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi boshqa viloyatlarga nisbatan past bo'lib kelmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiyaviy muhitning shakllanishi bir qator asosiy omillar ta'sirida yuzaga keladi. Jumladan, mintaqaning agrar sohada ixtisoslashuvi – paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik va sholichilik tarmoqlarining rivojlanish darajasi investitsiyalar oqimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, sug'orish tizimlari, transport-kommunikatsiya yo'llari, elektr energiyasi bilan ta'minlash kabi infratuzilma holati investorlar uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, lizing va kredit siyosatining parametrlarida (foiz stavkalari, garov talablari va imtiyozlar) mavjud bo'lgan shaffoflik va qulaylik investitsion faoliyatni jadallashtiradi. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan grant va subsidiyalar esa qishloq xo'jaligida investitsiya risklarini kamaytiruvchi omil sifatida maydonga chiqadi. Mintaqadagi qishloq xo'jaligi texnikasi parkining yangilanish sur'atlari, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi va resurslarni tejovchi agrotexnik echimlar bilan ta'minlanganlik darajasi investitsion jozibadorlikni belgilovchi yana bir muhim tarkibiy jihat sanaladi.

Bu omillar investitsiyalarning nafaqat hajmiga, balki ulardan foydalanish samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya oqimi past bo'lgan tumanlarda ishlab chiqarish xarajatlari yuqori, eksport salohiyati esa past bo'lib qolmoqda.



Quyidagi jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasining 2016–2024 yillar oralig'idagi qishloq

xo'jaligiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi va yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti (YQXM) ko'rsatilgan.

2-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligiga jalb qilingan investitsiyalar va YQXM (2016–2024), mlrd so'm [5]

Yil	Investitsiya hajmi (mlrd so'm)	Yalpi q/x mahsuloti (mlrd so'm)
2016	112,3	2350,4
2017	120,8	2512,7
2018	138,9	2687,1
2019	167,5	2875,9
2020	190,2	3101,4
2021	221,0	3354,8
2022	265,7	3670,2
2023	298,4	3957,3
2024	342,0	4270,0

STATA yordamida quyidagi trend modeli qurildi:

$$Investment = -1105.37 + 0.725 * Year$$

$$R-squared = 0.9824$$

Bu natija shuni ko'rsatadiki, har yili o'rtacha 0.725 mlrd so'mga investitsiya hajmi ortmoqda. Yuqori R-squared qiymati (0.98) modelning statistik ahamiyatli ekanini bildiradi.

Ushbu tahlil STATA dasturida corr buyrug'i yordamida amalga oshirildi:

$$corr(Investment, YQXM) = 0.9981$$

Bu qiymat juda yuqori musbat bog'liqlik borligini bildiradi. Demak, Qoraqalpog'iston Respublikasida **investitsiya hajmi ortishi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmoqda.**

STATA orqali quyidagi regressiya modeli qurildi:

$$YQXM = 1172.5 + 8.96 * Investment$$

$$R-squared = 0.9912$$

Natija:

$$YQXM = 1172.5 + 8.96 * Investment$$

$$R-squared = 0.9912$$

Izoh:

• Bu model bo'yicha **har 1 mlrd so'm qo'shimcha investitsiya qilinganida, qishloq xo'jaligi mahsuloti 8.96 mlrd so'mga ortadi.**

• $R^2 = 0.99$ bo'lishi modelning juda yaxshi izohlayotganini bildiradi.

Niderlandiyada agrobiznes investitsiyalarining asosiy qismini **klaster asosidagi ilg'or texnologiyalar, agrologistika**, hamda **venchur kapital fondlari** tashkil qiladi.

• Investitsiyalar yuqori darajada **ko'p kanalli** tarzda amalga oshiriladi.

• Har bir klaster – ilmiy tadqiqot instituti, fermer, qayta ishlovchi va eksportyorni birlashtiradi (European Cluster Observatory, 2020).

Xitoyda davlat tomonidan agrobiznes uchun maxsus **agrar innovatsion zonalar** tashkil etilgan bo'lib, bunda:

- Soliq imtiyozlari;
- Innovatsion texnologiyalarni subsidiyalash;
- Mahalliy investorlar uchun **subsidiyalangan kreditlar** yo'lga qo'yilgan.

(Manba: FAO China Investment Centre, 2021)

Qozog'istonda investitsiyalarni jalb qilishda **“Qishloq taraqqiyoti dasturi–2025”** muhim rol o'ynaydi. Unga ko'ra:

• Har bir viloyat bo'yicha **agrar rivojlanish indikatorlari** ishlab chiqilgan;

• Agrobiznes sohasidagi investitsiyalar natijaviylik (ROI) asosida baholanadi;

• Xorijiy investorlar uchun erkin iqtisodiy zonalar joriy etilgan.

(Manba: Ministry of Agriculture of Kazakhstan, 2023)

Tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

- Qoraqalpog'iston Respublikasida agrobiznesga investitsiyalar ko'paygan sari yalpi mahsulot hajmi sezilarli oshmoqda.

- STATA orqali olingan natijalar buni ilmiy jihatdan isbotlaydi.

- Xorijiy tajribani inobatga olib, Qoraqalpog'istonda innovatsion-investitsiyaviy platformalar yaratish zarur.

Quyidagi 3 ta model yordamida investitsiyalarning samaradorligi baholandi:

Model	O'zgaruvchilar	Koefitsiyent	R ²	Iqtisodiy izoh
Model 1	Investment → YQXM	8.96	0.9912	Har 1 mlrd so'm investitsiya 8.96 mlrd so'm YQXM oshiradi
Model 2	Investment → Employment	0.85	0.9145	Bandlik darajasi ijobiy o'smoqda
Model 3	Investment → Export	3.12	0.9678	Eksport salohiyati sezilarli oshmoqda



Qoraqalpog'iston Respublikasi tuman (shahar)lari bo'yicha qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar (2024-yil, mlrd so'm) [5]

Tuman/Shahar	Investitsiya hajmi (mlrd so'm)
Nukus shahri	59.8
Nukus tumani	41.7
Beruniy	32.5
Ellikqala	27.8
To'rtko'l	26.1
Kegeyli	21.3
Qanliko'l	17.9
Chimboy	15.1
Mo'ynoq	13.6
Qo'ng'iro't	10.9

Eng yuqori investitsiya Nukus shahri va Nukus tumaniga to'g'ri kelmoqda, Mo'ynoq va Qo'ng'iro't tumanlari esa eng past ko'rsatkichga ega.

Ilmiy asoslangan takliflar va strategiyalar:

1. **Hududiy investitsiya balansini ta'minlash:** Investitsiyalar faqat markaziy tumanlarga emas, balki ekologik jihatdan noqulay tumanlarga ham yo'naltirilishi lozim.

2. **Agroklastlar orqali investitsiya samaradorligini oshirish:** Har bir tuman bo'yicha alohida agroklastlar tuzish taklif etiladi.

3. **Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish:** Xorijiy investorlarga er resurslari, kreditlar, sug'urta imkoniyatlari bo'yicha imtiyozlar berilishi kerak.

4. **Agrobiznes platformalari uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish:** Fermerlar, investorlar va davlat organlari o'rtasidagi aloqa tez, ochiq va aniq bo'lishi uchun raqamli platforma zarur.

5. **Yillik monitoring tizimi:** Har yili investitsiya samaradorligi bo'yicha yakuniy monitoring natijalari ochiq qilinishi va u asosida strategiya yangilanib borilishi kerak.

Yuqoridagi STATA tahlillar, regressiya modellari, va grafik ko'rsatkichlarga tayangan holda quyidagi ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi:

1. **Investitsiyalar – asosiy drayver:** Qoraqalpog'istonda agrobiznes samaradorligini oshirishda investitsiyalar eng muhim omil bo'lib, bu YQXM (yalpi q/x mahsuloti), eksport va bandlik ko'rsatkichlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2. **Statistik model isboti:** STATA orqali qurilgan trend va regressiya modellari 2016–2024 yillar oralig'ida investitsiyalar o'sishining barqarorligini ko'rsatadi ($R^2 > 0.98$).

3. **Tumanlar kesimidagi nomutanosiblik:** Investitsiyalar viloyatlar bo'yicha notekis taqsimlangan, bu esa ayrim tumanlarning iqtisodiy faolligini cheklab qo'ymoqda.

4. **Xorijiy tajriba – moslashtiriladigan echim:** Xitoy, Niderlandiya, Qozog'iston tajribalari asosida Qoraqalpog'istonda agroklastlar va investitsiyaviy zonalarini joriy qilish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpog'iston Respublikasida agrobiznes sohasini rivojlantirishda investitsion muhit holati va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatdiki:

- Agrobiznesning rivojlanishi investitsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq;

- Raqamli infratuzilmani izchil kengaytirish, agroklastlar faoliyatini to'liq joriy etish, shuningdek, agrar sohaga xususiy kapital oqimini kuchaytirish mintaqada investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Bunga qo'shimcha ravishda, subsidiya va grantlar ajratish mexanizmlarining takomillashtirilishi agrobiznes subyektlarining innovatsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi;

- Davlat tomonidan yillik monitoring asosida tahlil qilinadigan indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi kerak.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Mustaqil tadqiqotchi Seyfullayeva Ayzada Tolibekovna, / исследователь Сейфуллаева Айзада Толибековна, / researcher Seyfullayeva Ayzada Tolibekovna
0009-0007-9264-2172

gulaidaturdieva@gmail.com

2. Ilmiy rahbar Abishov Muxammed Sarsenbaevich / научный руководитель Абишов Мухаммад Сарсенбаевич / scientific supervisor Abishov Mukhammed Sarsenbaevich

muxammedabishov@gmail.com

0000-0003-1740-1559

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Campbell, R. (2012). Agricultural Efficiency and Productivity: A Global Perspective. Oxford Press.

2. Musoev A. (2019). Qishloq xo'jaligida samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili. Toshkent: Iqtisodiyot.



3. FAO (2022). Measuring Productivity in Agri-Food Systems. United Nations Report.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. — PQ–5853. — 2020-yil 23-oktabr. // www.lex.uz

5. www.qrstat.uz - Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar. *O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami*, 2022-y., 4-son, 87–102-betlar.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz